«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«25» noyabr 2026 y.
№ 849

Xizmat avtotransport vositalarini haydovchisiz ijaraga olish bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

T/r	Talablar ro‘yxati	Talablar mazmuni
1	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB.
2	Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmat turi	Xizmat avtotransport vositalarini haydovchisiz ijaraga olish xizmati.
3	Buyurtmachi manzili	Toshkent sh, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18 - A uy.
4	Tovar (ish, xizmat)larga qo‘yiladaigan talablar	1. Ijrochi texnik topshiriqnomaga ilova qilingan rusum va miqdordagi avtotransport vositalarini 1 (bir) yil muddatga ijaraga beradi. 2. Ijaraga beriladigan avtotransport vositalarining ishlab chiqarilgan yili 2023-yildan eski bo‘lmasligi kerak. 3. Ijaraga olinadigan barcha avtotransport vositalari Buyurtmachiga topshirish paytida quyidagi talablarga to‘liq javob berishi shart: - dvigatel, uzatmalar qutisi (transmissiya), tormoz tizimi, rul boshqaruvi, yurish qismi (xodovaya chast) hamda barcha elektr va yoritish tizimlari nuqsonsiz ishlayotgan, texnik suyuqliklari (motor moyi, antifriz, tormoz suyuqligi) me’yor darajasida to‘ldirilgan bo‘lishi; - kuzov qismlarida yo‘l-transport hodisasi oqibatidagi shikastlanishlar, zanglash, chuqur tirnalish va bukilishlar bo‘lmasligi, oynalar darz ketmagan hamda kuzovda hech qanday tashqi reklama yozuvlari yoki yot stikerlar mavjud bo‘lmasligi; - salon toza, o‘rindiq qoplamalari va ichki bezaklari yirtilmagan, kuymagan, begona va tamaki hidlaridan xoli bo‘lishi, shuningdek, xavfsizlik kamarlari, oyna

		ko‘targichlar, multimedia va audio tizimlari to‘liq soz holatda bo‘lishi; - isitish va sovutish tizimlari (konditsioner / klimat-kontrol) to‘liq ishchi holatda va freon bilan to‘ldirilgan bo‘lishi; - barcha g‘ildiraklar bir xil o‘lchamda, protektor chuqurligi yo‘l harakati qoidalari talablariga mos, yoriq va shishlarsiz, mavsumga mos yaroqli shinalar bilan jihozlangan bo‘lishi; - yo‘l harakati qoidalarida belgilangan barcha zaruriy vositalar — soz holatdagi zaxira g‘ildirak, domkrat, ballon kaliti, shatakka olish trosi, birinchi tibbiy yordam qutichasi (yaroqlilik muddati o‘tmagan dori vositalari bilan), yaroqli o‘t o‘chirgich, avariya to‘xtash belgisi va nur qaytaruvchi jilet bilan to‘liq butlangan bo‘lishi; - avtotransport vositasini qonuniy boshqarish uchun barcha zarur hujjatlarning asl nusxalari (transport vositasini qayd etish guvohnomasi, davlat texnik ko‘rigidan o‘tganlik to‘g‘risidagi belgi) hamda kamida 1 (bir) dona asosiy kalit (va pult) bilan topshirilishi; - Taqiq va cheklovlardan xoliligi: avtotransport vositasiga nisbatan xatlov (arest), garov, qidiruv yoki boshqa uchinchi shaxslarning huquqiy da’volari va taqiqlari mavjud bo‘lmasligi shart. 4. Ijara muddati davomida (avtotransport vositasi topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab qaytarib topshirilgunga qadar): - avtotransport vositalarini tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega haydovchilar bilan ta’minlash (haydovchilar Buyurtmachi tomonidan biriktiriladi); - rejali texnik xizmat ko‘rsatish (TXK), joriy va kapital ta’mirlash ishlari; - davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish va bu bilan bog‘liq yig‘imlar; - majburiy (OSGO) va ixtiyoriy (KASKO) sug‘urta polislarini rasmiylashtirish xarajatlari; - kundalik yoqilg‘i-moylash materiallari (YOMM) va ekspluatatsiya xarajatlari to‘liq Buyurtmachi hisobidan amalga oshiriladi. 5. Ijrochi so‘rovnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida avtotransport vositalarini Buyurtmachiga “Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi” asosida topshiradi. 6. Ijrochi avtotransport vositalaridan qonuniy foydalanish uchun barcha zarur hujjatlarni (transport vositasini qayd etish guvohnomasi, ijara shartnomasi va b.) taqdim etishi shart. 7. Ijara muddati tugagach, Buyurtmachi avtotransport vositalarini normal eskirishni hisobga olgan holda, texnik soz va but holatda dalolatnoma asosida Ijrochiga qaytaradi.

5	Ijrochiga qo‘yiladigan malaka talablari	- O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxs bo‘lishi; - Shartnoma predmeti bo‘lgan avtotransport vositasiga mulk huquqi yoki qonuniy tasarruf etish (lizing, subijara) huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; - Insofsiz ijrochilar yagona reestriga kiritilmagan bo‘lishi.
6	Ijara muddati	1 (bir) yil
7	To‘lov shartlari	Xizmatlar har oy yakuni bo‘yicha tomonlar o‘rtasida imzolangan “Bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) dalolatnomasi” va elektron hisobvaraq-faktura (EHF) asosida qabul qilinadi. To‘lovlar Buyurtmachi tomonidan dalolatnoma imzolangandan so‘ng 5 (besh) bank ish kuni ichida pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi
8	Shartnoma valyutasi	O‘zbekiston respublikasi milliy valyutasi - so‘m.

Ijaraga olinadigan avtotransport rusumlari bo‘yicha ro‘yxat

t/r	Transport rusumi	Transport soni
1	Chevrolet Malibu 2	5 ta
2	Chevrolet Traverse	1 ta
3	Chevrolet Equinox	2 ta
4	Chevrolet Tracker	9 ta
5	Chevrolet Damas	2 ta
6	BYD Chazor DM-I	3 ta
	JAMI:	**22 ta**

kelishuvchilar: A.KhASANOV, F.Mustafoyev

https://hujjat.brb.uz/?pin=lJ33eV11&id=72eff177-7258-4d61-98e5-9a04914b2528